BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGI.

Xusanboyeva Ruxshona Jamoliddin qizi
UBS Univesiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
Tel nomer:913506988 Email: Xusanboyevaruxshona@gmail.com
Ikromjanova Ruxsora Ilhomjon qizi
Tel nomer:913506999 Email: ruxsoraikramjonovna@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24489572

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari , ulardan darslarni tashkil etishda foydalanish yo‘llari hamda o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamyati yoritiladi.Shuningdek,sun’iy intellektdan foyalanishning afzalliklari bilan bir qatorda ,pedagogik,axloqiy va xavfsizlik jihatlari ham tahlil qilinadi.Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallash emas,balki uning pedogogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qarashligimiz lozim.

Kalit so‘zlar; sun’iy intellekt,boshlang‘ich ta’lim,raqamli ta’lim, pedogogik texnologiyalar,individual ta’lim,kreativ ta’lim,raqamli kompetensiya.

ВОЗМОЖНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация. В статье рассматриваются потенциал технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессе начального образования, способы их интеграции в организацию учебных занятий, а также их роль в развитии знаний, умений и компетенций учащихся. Кроме того, анализируются преимущества использования ИИ, а также связанные с ним педагогические, этические аспекты и вопросы безопасности. В контексте начального образования искусственный интеллект следует рассматривать не как замену учителю, а как инструмент, поддерживающий его педагогическую деятельность.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, цифровое образование, педагогические технологии, персонализированное обучение, творческое образование, цифровая компетентность.

POSSIBILITIES AND EFFECTIVENESS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION.

Abstract. This article explores the potential of artificial intelligence (AI) technologies within the primary education process, methods for integrating them into lesson organization, and their significance in developing students' knowledge, skills, and competencies. Furthermore, it analyzes the advantages of using AI, alongside its pedagogical, ethical, and safety-related aspects. In the context of primary education, artificial intelligence should not be viewed as a replacement for the teacher, but rather as a tool that supports the teacher's pedagogical practice.

Keywords: artificial intelligence, primary education, digital education, pedagogical technologies, personalized learning, creative education, digital competence.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir korsatmoqda. Ayniqsa sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi o‘qitish va o‘rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratmoqda.Sun’iy intellekt yordamida ta’lim materiallarini tayyorash o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash topshiriqlarni moslashtirish va o‘quv jarayonini tahlil qilish kabi imkoniyatlari kengaymoqda. Boshlang‘ich

ta’lim insonning keyingi ta’lim bosqichlari uchun zarur bolgan bilim ko‘nikma va kompetensiyalar shakllanadigan muhim davr hisoblanadi.Shu sababli aynan boshlang‘ich sinflarda zamonaviy texnologiyalardan pedagogik maqsadlarda tog‘ri foydalanish muhim ahamyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt-kompyuter tizimlarining inson tomonidan bajariladigan ayrim aqliy faoliyatlarni jumladan ma’lumotlarni tahlil qilish matn yaratish tasniflash savollarga javob berish va muayyan vazifallarni bajarish qobilyatini ifodolovchi texnologiyalar majmuasidir. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchiga dars jarayonini rejalashtirish, o‘quv materiallarini tayyorlash va o‘quvchchilar bilan individual ishlashda yordam berishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan bir nechta yonalishlarda foydalanish mumkin.

Birinchidan,o‘quv materiallarni tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt o‘qituvchiga yordam beradi.Masalan, o‘qituvchi ma’lum bir mavzu bo‘yicha savollar, mashqlar,kichik topshiriqlar yoki muhokama uchun vaziyatlar ishlab chiqishda undan foydalanishi mumkin.

Ikkinchidan,individual ta’limni tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim darajasi bir xil bo‘lmasligi mumkin.Ayrim o‘quvchilar mavzuni tez o‘zlashtirsa ,boshqalarga qo‘shimcha tushintirish va mashq qilish zarur bo‘lad.Sun’iy intellekt yordamida turli darajadagi topshiriqlarni tayyorlash mumkin. Uchinchidan,sun’iy intellekt o‘quchilarning kreativ va mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun qo‘llanishi mumkin.Masalan,o‘quvchilarga hikoyaning boshlanish qismi berilib,uning davomini o‘zlari yaratish,muayyan muammoga bir necha yechim taklif qilish yoki berilgan mavzu asosida savollar tuzish topshirilishi mumkin. To‘rtinchidan,sun’iy intellekt o‘qituvchining vaqtini tejash imkonini beradi.Dars rejasi,mashqlar,test savollari va qo‘shimcha materiallarning dastlabki variantlarini tayyorlashda unda foydalanish materialni o‘qituvchi albatta tekshirish va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish zarur. Sun’iy intellektning boshlang‘ich ta’limdagi afzalliklari. Sun’iy intellektdan oqilona foydalanish quydagi imkoniyatlarni yaratadi;

Ta’lim materiallarini tezkor tayyorlash;
O‘quvchilar uchun turli darajadagi topshiriqlar yaratish;
Individual yondashuvni kuchaytirish;
O‘quvchilarning qiziqishini oshirish;
Interfaol ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish;
O‘qituvchining vaqtini tejash;
Raqamli kompentensiyalarni rivojlantirish;
Kreativ fikrlashni rag‘batlantirish

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratini almashtirmaydi O‘qituvchi texnologiyadan qachon,qanday va qanday maqsadda foydalanishni belgilab beruvchi asosiy shaxs bo‘lib qoladi. Sun’iy intellektdan foydalanishda muhim jihatlar .Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishda o‘quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.Texnoligiyadan ortiqcha foydalanish o‘quvchining mustaqil fikralashi va real muloqatiga salbiy ta’sir korsatishi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellekt o‘quvchining o‘rniga fikrlaydigan vosita emas,balki uning fiklashini rivojlantirishga xizmat qiladigan yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, o‘quvchilarni shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, internet xavfsizligi, yoshga mos kantetdan foydalanish va sun’iy intellekt tomonidan berilgan ma’lumotlarni tekshirish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘qituvchi roli Sun’iy intellektning ta’limdagi rivojlanishi o‘qituvchining rolini kamaytirmaydi,aksincha,uning vazifalarini yanada takomillashtiradi.O‘qituvchi o‘quvchining individual extiyojlarini aniqlaydi,ta’lim maqsadini belgilaydi,un’iy intellekt yaratgan materiallarni pedagogik jihatdan baholaydi va o‘quvcilar faoliyatini nazorat qiladi. Demak, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat fan bilimlariga,balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchining kunlik faoliyatida dars ishlanmasi (konspekt) tuzish, test va topshiriqlar to‘plamini shakllantirish, ko‘rgazmali vositalar izlash katta vaqt talab etadi. Sun’iy intellekt assistentlari o‘qituvchiga dars rejalarining dastlabki loyihasini tuzib berish, test savollarini avtomat ravishda vaqt teflagan holda

yaratish imkonini beradi. Tejangan vaqtni o‘qituvchi o‘quvchilar bilan bevosita emotsional muloqot qilishga va pedagogik mahoratini oshirishga yo‘naltiradi. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar, javoblar yoki topshiriqlar ba’zan noaniqlik va mantiqiy xatolarga ega bo‘lishi mumkin (gallyutsinatsiya effekti). Shu sababli, SI platformalari bergan har bir ma’lumot va didaktik material o‘qituvchi tomonidan chuqur pedagogik va metodik tahlildan o‘tkazilishi hamda o‘quv dasturiga moslashtirilishi shart. Sun’iy intellekt qanchalik mukammal va aqlli bo‘lmasin, u hech qachon o‘qituvchining o‘rnini bosolmaydi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya, emotsional muloqot, mehr, qadriyatlarni singdirish va shaxsiy namuna ko‘rsatish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi — dars jarayonini boshqaruvchi, o‘quvchilarning psixologik holatini tushunuvchi va ularni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi asosiy va yetakchi shaxsdir. Sun’iy intellekt esa o‘qituvchining qo‘lidagi zamonaviy, qulay va unumdor yordamchi vositadir. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli va pedagogik SI-kompetensiyalarni ham egallagan bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish uchun kata imkoniyatlarga ega zamonaviy texnologiyaladan biridir.Undan ta’lim materiallarini yaratish,individual topshiriqlar tayyorlash,o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirishda samarali foydalanish mumkin. Biroq sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy etishda uning imkonyatlari bilan bir qatorda cheklovlar va xavflarni ham hisobga olish zarur.Ayniqsa,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, mustaqil fikrlashi,ijodkorligi,muloqot qobilyati va axborot xavfsizligi ustuvor bo‘lishi kerak. Shunday qilib,sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita emas , balki pedagogning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy texnologiya sifatida qaralishi lozim.Uni pedagogik maqsasadga muvofiq va me’yorida qo‘llash boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va raqamli texnologiyalarini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. UNESCO.Guidance for Generative Al in Education and Research.Paris: UNESCO,2023
4. UNESCO.Artificial Intelligence and Education : Guidance for Policy-makers. Paris:UNESCO,2021
5. OECD.Digital Education Outlook.OECD Publishing
6. Pedagogika bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari uvhun darslik va o‘quv qo‘llanmalar.